Siyosiy lider imijini shakllantirishning muhim yo'nalishlari

Avazov Farhod Rahmatulloevich
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya Universiteti,
Xalqaro munosabatlar fakulteti magistranti

Annotatsiya: Zamonaviy odamlar uchun siyosiy liderlar haqidagi g'oyalar va obraz har doim mavjud. Ammo afsuski, jamoatchilik orasida shakllangan bu obraz siyosiy yetakchi uchun hamisha foydali bo'lib kelmagan. Shuning uchun siyosatshinoslikda siyosiy liderni sun'iy qiyofasini, aniqrog'i imijini yaratish uning korporativ zinapoyadan yuqoriga ko'tarilishga, muvaffaqiyatli rahbar bo'lishga yoki boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Siyosiy lider, siyosatshunos, ichki va tashqi imij, jamoatchilik, rahbar, xulq-atvor, g'oya, shaxs, komponent, hodisa, davlat, ritorika, odamlar.

Bugungi kunda siyosiy lider imijini yaratishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar katta rol o'ynamoqda. Omma oldida o'z imijiga ega bo'lgan siyosiy liderlar mos ravishda o'z xalqi va davlatining xalqaro maydondagi imijini shakllantiradi. Agar siyosiy liderning imiji ijobiy bo'lsa, u boshchiligidagi hokimiyat o'z fuqarolari va xorij davlatlari uchun ijobiy baholanadi.

Imij (inglizcha image) – "siymo", "timsol", "qiyofa" "tasvir", "obraz", ma'nolarini anglatadi. Imij tushunchasi reyting, obro', mashhurlik, joziba, maftunkorlik, e'tibor, nufuz va boshqa tushunchalar bilan hamohangdir. Boshqacha qilib aytganda imij shaxs yoki hodisaning haqiqiy fazilatlarga va faktlarga asoslangan soxtalashtirilgan tasviridir.

Imij – ma'lum tarkibiy qismlardan tashkil topgan tizimning bir turidir. Ularning barchasi bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Siyosiy lider imiji, jamiyat ongida shakllanadigan obraz bo'lib, ushbu shaxs haqidagi taassurotlar to'plami hisoblanadi. Imijning uch turi mavjud bo'lib, bular: ichki, tashqi va protsessual qismlarga bo'linadi.

1. Ichki imij – bu shaxsning ichki qiyofasi va uning ichki tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi, bular: professionalizm, xobbi (sevimli mashg'ulotlar), qiziqishlar, qadriyatlar, intellekt, aql va ruh bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalardir. O'z navbatida bularning barchasini umumiy tarzda shaxsning mentaliteti deb atash mumkin. Agar biz to'g'ridan-to'g'ri siyosatchi haqida gapiradigan bo'lsak, u uchun siyosiy g'oyalarning mavjudligi muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Aslida siyosiy qarashlar va bilimni rivojlanishi oddiy odamni siyosatchi darajasiga chiqaradi;

2. Tashqi imij – bu shaxsning tashqi ko'rinishi hisobidan to'plangan ma'lumotlardir. Ushbu imij ko'plab omillarga asoslanadi va ob'ektning tashqi ko'rinishi uchun javobgardir. Bu turkumga kiyim va soch turmagi, yurish, imo-ishoralar, so'z boyligi va intonatsiya, yuz ifodalari, ovoz tembri, odob hamda tez-tez ko'rinadigan odatlar kiradi.

3. Imijning protsessual komponenti – bu siyosat sub'ektining o'z g'oyalari va e'tiqodlari uchun qanday kurashayotganligini ko'rsatib beruvchi omildir. Protsessual komponent shaxsning temperamentini ifodalaydi. U ko'plab omillarni o'z ichiga oladi, masalan: insonning ichki fazilatlari, uning his-tuyg'ulari, reaksiyasining tezligi, ifodaliligi, badiiyligi va hazilkashlik tuyg'ularini.

Agar siyosat sohasiga endi kirib kelgan shaxsga ushbu tarkibiy qismlardan kamida bittasi namoyon bo'lmasa, unda bu siyosiy shaxsning obrazi to'liq shakllanmaydi. Bu elementlar birgalikda siyosiy lider imijini tashkil qiladi. Bundan tashqari, imijning yana boshqa muhim tarkibiy qismlariga nutq, yuz ifodalanishi, xulq-atvor, ritorika, imo-ishoralar va kiyim bosh kiradi. Ushbu komponentlarning ham har birini batafsil ko'rib chiqamiz.

Ko'pincha, siyosiy arboblarning aytgan yoki yozgan narsalarining aksariyati jamoatchilikda ushbu shaxsning imijini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shaxsiy imijni yaratishda eng muhim element bu nutqdir. Nutq kiyim yoki xulq-atvor bilan birgalikda imij mavzusining asosiy g'oyasini belgilaydi. Bugungi kunga kelib ham, siyosiy etakchi obrazini yaratishda nutq o'zining etakchilik mavqeini yo'qotmagan va zamonaviy siyosatchi imijining asosiy tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda.

Siyosiy lider uchun notiqlik mahorati, ya'ni oratorlik san'ati jamoatchilikda ijobiy imijni shakllantirishda juda muhim omil hisoblanadi. Ritorika – filologiyaning nutq, notiqlik san'atini ko'rib chiqadigan bo'limi bo'lib, u tashqi xususiyatlarni shu jumladan turish, nafas olish, qomat va yuz bitishini ham o'z ichiga oladi.

Xulq-atvor har bir kishida yaxshi, yomon va turli odatlar ko'rinishida rivojlangan bo'ladi. Insonning yomon yoki nomaqbul hatti-harakatlari yomon xulq deb ataladi. Yaxshi xulq-atvorli shaxs esa jamiyatda tez obro' topib, xalq orasida ijobiy obrazini shakllantiradi.

Insonning yuz ifodalari suhbatdoshga har qanday masala bo'yicha o'z pozitsiyasini aniq tushunishiga imkon beradi. Masalan, oddiy odamlar davlat rahbarini yuz ifodalarini kuzatib, u bilan bog'liq siyosiy jarayonlarning o'zgarishini his qila oladi. Shuningdek, mimika tufayli biz siyosatchilarning biror narsaga munosabatini aniqlashimiz mumkin. Masalan u munozaraga qiziqadimi yoki u zerikadimi, u voqealarni ochiq yoki yopiq tarzda yoritadimi, biz taklif etgan pozitsiyani ma'qullaydimi yoki aksincha.

Shuningdek, yuqoridagi barcha komponentlardan tashqari, siyosiy yetakchining tashqi ko'rinishi muhim hisoblanadi. Siyosatchiga kiyim yoki soch turmagi tanlashda alohida talablar qo'yiladi. Siyosatchining yaxshi ko'rinishi muvaffaqiyat kalitidir. Jamiyat siyosiy yetakchi qanday bo'lishi kerakligini tushunadi. Siyosatchi biron bir tadbirga tashrif buyurganida, ko'pchilik uni taniydi, unga qiziqish bildiradi, mos ravishda uning tashqi ko'rinishi ham diqqat markazida bo'ladi.

Qizig'i shundaki, siyosat olamida ham moda siyosiy liderlarning imijini yaratishda asosiy vositalardan hisoblanadi. Shu sababdan ko'plab siyosatchilar stilistlarning maslahatlariga quloq solishadi. Siyosatchining kiyimi o'zi uchun ham, atrofidagilari uchun ham universal va qulay bo'lishi kerak. Kiyim-boshni tanlashda eng avvalo, zamonaviylik va milliy qadriyatlarni hisobga olish kerak bo'ladi.

Siyosatchi uchun yaxshi kiyinish o'ziga xos san'atdir. Siyosiy rahbar bu san'atni egallashi uchun moda talablariga rioya qilibgina qolmay, o'z didini ham tarbiyalashi kerak. Didni tarbiyalash uchun qonunlar, me'yor va o'zaro mos tushunchalarga asoslangan san'atning barcha turlari bilan tanishib borishi lozim.

Siyosiy lider – bu ko'pchilik (saylovchilar) tomonidan tanlangan va ularning manfaatlariga xizmat qila oladigan shaxs hisoblanadi. Agarda, siyosiy lider ko'p jihatdan xalq manfaatlari uchun yaxshi xizmat qilgan bo'lsayu, lekin o'ziga noto'g'ri kiyim kiysa jamoatchilikning unga bo'lgan taassurotlari buziladi. Siyosatchi uchun kiyimni to'g'ri tanlash mahoratida yaxshi did va nafis uslub bo'lishi kerak. O'zining tashqi ko'rinishiga e'tiborsiz bo'lgan siyosatchining jamaotchilik orasida o'zining yaxshi imijini shakllantirishi dargumon. Zamonaviy odamlar o'zlari uchun lider tanlashda siyosatchining g'oyalari, uning fikri yoki ambitsiyalariga alohida e'tibor qaratadi. Nomzod qanchalik istiqbolli bo'lsa, odamlar uning tashqi ko'rinishiga shunchalik e'tibor bilan qaraydi. Toza va tashqi jozibali siyosatchi o'zining yorqin siyosiy rejalari va g'oyalari bilan hamohang ravishda o'z xalqi va boshqa davlat fuqarolari orasida ijobiy imijini shakllantiradi.

Hozirgi jamiyatda odamlar elita siyosatchining tashqi ko'rinishining eng mayda detallarigacha e'tibor qaratadi. Yuqoridagi barcha omillar tufayli siyosiy lider haqida jamoatchilik fikri va uning imiji shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- https://arxiv.uz/ru/documents/referatlar/sotsiologiya/siesiy-elita-va-siesiy-etakchilik
- https://monographies.ru/en/book/section
- https://beruniyalimov.uz/archives/
- https://kpfu.ru/portal/docs/